

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**DADABAEVA FERUZA XUSANBOEVNA**

**ABDULLA QODIRIY “O‘TKAN KUNLAR” ROMANINING RUSCHA VA  
NEMISCHA TARJIMALARIDA TARIXIY- MILLIY VA USLUBIY  
O‘ZIGA XOSLIKNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Dadabayeva Feruza Xusanboyevna**

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romani ruscha va nemischa tarjimalarida tarixiy, milliy va uslubiy o‘ziga xoslikni qayta yaratish muammolari.....3

**Дадабаева Феруза Хусанбоевна**

Проблемы воссоздания исторического, национального и стилистического своеобразия в русском и немецком переводах романа Абдуллы Кадири “Минувшие дни”.....23

**Dadabayeva Feruza Xusanboyevna**

The Problems of recreating of the historical-national and stylistic originality in the russian and german translations of Abdulla Kadiriyy’s novel “Days gone by”.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.76.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**DADABAYEVA FERUZA XUSANBOYEVNA**

**ABDULLA QODIRIY “O‘TKAN KUNLAR” ROMANINING RUSCHA VA  
NEMISCHA TARJIMALARIDA TARIXIY- MILLIY VA USLUBIY  
O‘ZIGA XOSLIKNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Namangan-2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil 1136 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) rezyume Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.namdu.uz](http://www.namdu.uz) hamda „Ziyonet“ axborot-ta’lim portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sadiqov Zohidjon Yakubjonovich**  
filologiya fanlari doktori(DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Hoshimova DildoraMadaminovna**  
Filologiya fanlari doktori(DSc), professor

**A`zamov Omadjon Burxonovich**  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**Etakchi tashkilot:**

**Farg`ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi \ PhD.03/31.03.2021. Fil.76.05. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» \_\_ soat \_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy.  
tel.: (+99869228 -85-01; faks :(99869) 228-85-02; e-mail: info@namd.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_) raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi,161 - uy.  
tel.: (+99869228 -85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.z)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.I. Ziyayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori,  
professor

**N.A.Mamadjonova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha  
falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

**Q.A.Sidiqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari nomzodi, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va muhimligi.** Jahonda millatlararo lingvokulturologik munosabatlarning rivojlanishida badiiy tarjimaning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Sharq va gʻarb adabiyoti durdonalari tarjimalarida asliyatdagi til va tasvir vositalarini ifoda eta olish, asardagi milliy va tarixiy oʻziga xoslikni saqlash kabi masalalar tarjimon oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tarjimaga asl nusxa tilini bilgan, millat tarixi va madaniyatini hurmat qilgan holda yondoshish, asardagi milliy ruhni tarjimada aks ettirish kabi masalalar tarjimashunoslik sohasidagi dolzarb masalalardan biridir.

Dunyo tarjimashunosligida Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanini oʻrganishga boʻlgan qiziqishning ortib borayotganligi, hozirga kunda ham ushbu asarning yangi nashrlari va tarjimalari eʼlon qilinayotganligi mazkur mavzuda maxsus tadqiqotlar olib borishni talab qilmoqda. Bunday asarlarni sharq va gʻarb tillariga qilingan tarjimalarini oʻrganish, bu sohada amalga oshirilgan ishlarning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, erishilgan natijalarni eʼtirof etish va ayni paytda yoʻl qoʻyilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha takliflar ishlab chiqish kabilar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekistonda tarjima nazariyasining lisoniy-uslubiy muammolarini hal qilishda milliy adabiyotlarning eng namunali asarlarining xorijiy tillardagi tarjimalari bilan qiyosiy tahlil olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. “Qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, gʻoyat ogʻir sharoitda ilm-maʼrifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat gʻoyalari dadil koʻtarib chiqqan jadid bobolarimizning ulugʻ maqsadlar yoʻlidagi mardona kurashi va fidoiyligi Yangi Ozbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi boʻlib xizmat qilishi zarur”<sup>1</sup>. Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani ruscha va nemischa tarjimalari asosida olib borilgan qiyosiy tahlillarning koʻrsatishicha, badiiy tarjimada asliyatdagi badiiy tasvir vositalarini, asarning lisoniy xususiyatlarini tarjima qilish tamoyillarini tahlil qilish til va tarjima sohasidagi muammolarni yoritishda muhim rol oʻynaydi. “Oʻtkan kunlar” romanining nemischa-ruscha tarjimalarini asliyat bilan tarixiy-milliy va uslubiy jihatdan qiyosiy-tipologik asnodda chogʻishtirish dissertatsion tadqiqot doirasida tadqiq etiladigan mavzu sifatida alohida dolzarblik kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son, 2017 yil 20-apreldagi “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ-2909-son, 2019 yil 21-oktyabrdagi “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son, 2022 yil 6-iyuldagi “2022-2026 yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish boʻyicha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-165-son, 2023 yil 28-fevraldagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonnig taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da amalga oshirishga doir davlat dasturi

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2022 yil, 20-dekabr.

to'g'risida"gi PF-27-son farmoni va mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yohnalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon va o'zbek adabiyotida tarixiy va badiiy asarlarni qiyosiy jihatdan o'rganish va tahlil qilish bir qator izlanuvchilar va olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini to'gan. Jumladan, jahon adabiyotshunosligi N. Rjevskaya, I. Repin, S. Vлахov, S.Florin, S.Babayeva<sup>2</sup> va o'zbek adabiyotshunosligida Z.Sodiqov, R.Karimov, K.Musayev, M.Baqoyeva, G'.Murodov, A.Muhammedov, M.Tojixo'jayev, D.Hoshimova, S.Usmonova, R.Shirinova, N.Dosbayeva<sup>3</sup> kabi bir qator tadqiqotchilarimiz o'z dissertatsiyalarida ushbu sohaga oid ilmiy yangiliklar qilishga erishdilar.

Birinchi o'zbek romanining tahlili va tarjimalari tadqiqi ham bir qator izlanuvchilar ilmiy ishlarida allaqachon o'z aksini topgan. Mazkur mavzuga muayyan darajada yaqin keladigan tadqiqotlar sirasiga A.Boboniyozov, Sh.Isayeva, B.Karimov, Z.Mahmudova, M.Ro'ziyeva, N.Soatova, L.Tashmuhamedova, Z.Choriyeva, F.Habibullayeva, M.Xamrayeva, S.To'laganova, G'.Murodov<sup>4</sup> tadqiqotlarini keltirish mumkin.

---

<sup>2</sup> Ржевская Н. Ф. Литературоведении и критика в современной Франции. М: Наука. 1985.

Репин Б. И. Национально-специфические слова-реалии как особая часть лексики в переводимом произведении. В сб. Теоретические и практические вопросы преподавания иностранного языка. Москва: 1970. -С.45.Влахов С. Флорин С. Непереводимое в переводе.-Москва.: Международные отношения, 1980.

Бабаева С.Р. Сравнительно-типологические исследования произведений М.Твена и Г.Гуляма. Филология и искусствоведение. Вестник ЧГПУ, 2011. – С.175-182.

<sup>3</sup> Sodiqov Z. Yusuf Xos Xojib “Qutadg'u bilig” asarining nemischa va inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. fil.fan.dok... – Toshkent, 2020.Karimov R. “Boburnoma”dagi she'rlar xorijiy tarjimalarining qiyosiy tahlili: dis...kand. filol. nauk. – Toshkent, 2003.Musayev K. Лексико-фразиологические вопросы художественного перевода.- Ташкент: 1980 –С.192.Baqoyeva M. Ingliz va amerika adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima taraqqiyoti.-Toshkent: Fan, 1995. Murodov G'. Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligini muammolari: fil.fan.bo'y.fal.dok (PhD) diss. avtor...- Toshkent, 2018.Muhammedov A. X. XX asr Yevropa va o'zbek tarjimashunosligining taraqqiyot prinsiplari: fil..fan..dok..diss.. avtoref..- Samarqand, 2021.Tojixo'jayev M. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari Martin Xartman tarjimasi va talqinida. Fil. fan. bo'yicha fals. dokt. (hD) diss...– Toshkent, 2020.Hoshimova D. “ Boburnoma” matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi fil.fan.dok...diss.– Toshkent, 2018.Usmonova S. O'zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyati tasviri : fil.fan. bo'y.fals. dok(PhD) diss. avtoreferati.. Farg'ona , 2021.Shirinova R. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: fil. fan. bo'y. dok (DSc) diss...- Toshkent, 2017. Dosbayeva N. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklash (Amerika hikoyalari tarjimasi misolida). Fil.fan.nom...diss. – Toshkent, 2011.

<sup>4</sup> Boboniyozov A.Yu. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida tasviriy vositalar va til badiiyati. Fil.fan. nom. diss...-Toshkent, 1995. Isayeva Sh. O'zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari: fil.fan. nom. diss. avtor...- Toshkent, 2001. Karimov B. XX asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi: fil.fan. dok. diss.avtr... –Toshkent, 2002. Mahmudova Z. Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” romanining milliy o'ziga xosligi. Fil.fan.. nom.. diss...-Toshkent, 1996. Ruziyeva M.X. Abdulla Qodiriy ijodida milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar uyg'unligining falsafiy tahlili. Fil...fan..nom. diss..- Toshkent, 1982.Soatova N. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanida epik tasvir an'analari: Filol. f.n. ... disser. – Toshkent: 2001

Tashmuhamedova L. Abdulla Qodiriyning estetik qarashlari: Fil.fan.nom. diss...- Toshkent, 2005.Choriyeva Z. Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'naviy va uslubiy xususiyatlari. Fil.fan. nom. diss. ...avtoreferat- Toshkent, 2006. Хабибуллаева Ф. К. Воссоздание национального своеобразия

1972 yilda Ra'no Fayzullayeva "Badiiy tarjimada milliy xoslikni ifodalash muammosiga doir" nomli dissertatsiyasida badiiy tarjimada milliy kolorit masalasini yoritishda "O'tkan kunlar" romanining Arno Shpext tomonidan o'g'irilgan nemischa tarjimasiga murojaaaat qiladi<sup>5</sup>. Lekin bu tadqiqotchi ishida ushbu roman tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinmagan, balki ushbu romandan ayrim parchalar tahlilga tortilgan xolos. Ayni paytda "O'tkan kunlar" romanining ruscha va nemischa tarjimalari uyg'unligidagi tadqiqot dissertatsion ish sifatida olib borilgan emas.

Ushbu asarning chet tillarga, xususan rus va ingliz tillariga qilingan tarjimalari bo'yicha esa F.Habibullayeva, Z.Bazarov, G.Kenjayeveva, M.Karimov<sup>6</sup> tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Ayni paytda "O'tkan kunlar" romanining nemis tiliga qilingan tarjimasi hali maxsus dissertatsion ish sifatida o'rganilgan emas.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Namangan davlat universiteti "O'zbek adabiyotining xorijda o'rganilishi va tarjimashunoslik masalalari" mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari va uning nemis tilidagi ikkita nashri, ruscha tarjimalarini aslyat bilan tarixiy-milliy va uslubiy jihatdan qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tarjimalari tarixini o'rganish; asarning ruscha va nemischa tarjimalarida izohlarning aks ettirilishini tadqiq etish;

aslyatdagi milliy o'ziga xoslik nemischa tarjimasining ikkita nashrida aks ettirish muammolarini tadqiq etish;

asardagi badiiy xronotoplarni nemis va rus tillaridagi tarjimalarda qayta yaratish masalalarini tahlil etish;

romanning ruscha va nemischa tarjimalaridagi tasviriy vositalar tarjimalari muammolarini o'rganish.

---

как критерий адекватности перевода. дисс.. док. философии (PhD) по филологическом наукам.- Ташкент, 2020. Хамраева М. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin: fil.fan.nom.diss...- Toshkent, 2010. To'laganova S. Ijodkor shaxsi va adabiy qahramon muammosi. Fil. f.n. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. avtor...- Toshkent, 2019. Murodov G'. Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligini muammolari: fil.fan.bo'y.fal.dok (PhD) diss. avtor...- Toshkent, 2018.

<sup>5</sup>Fayzullayeva R. Badiiy tarjimada milliy xoslikni ifodalash muammosiga doir: fil..fan..nom.. diss..-Toshkent: 1972. - B.156.

<sup>6</sup> Хабибуллаева Ф. К. Воссоздание национального своеобразие как критерий адекватности перевода. дисс.. док. философии (PhD) по филологическом наукам.- Ташкент, 2020.

Bazarov Z. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yoqdorlikni saqlash muammolari (Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" inglizcha tarjimalari misolida) fal.fan.fil.diss.avtoref...- Samarqand, 2020.-B.145.

Kenjayeveva G. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" tarjimalarida milliy manzaraning lingvomadaniy ifodasi. Fal.fan. fil. diss. avtorefer...- Buxoro, 2021.-B.58.

Karimov M. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalarida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi.f.f.d. diss..avtorefer...- Andijon, 2023.-B.56.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani, uning ruscha (L.Bat, V.Smirnova va M.Safarov) va nemischa (A.Shpext va B.Oripova) tarjimalari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanining ruscha va nemischa tarjimalarida tarixiy-milliy va uslubiy o‘ziga xoslikni qayta yaratish muammolari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda kross-madaniy, statistik, biografik, qiyosiy-uslubiy, tarixiy-tahliliy va qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“O‘tkan kunlar” romanining ruscha va nemischa tarjimalarida berilgan izohlar asliyat va tarjima o‘rtasida mutanosiblik, mukammallikni belgilashga, B.Oripova tomonidan tayyorlangan to‘ldirilgan nashrdagi izohlar hamda epilog va epigraflar tarjimasini asarning Arno Shpext tomonidan amalga oshirilgan nemischa tarjimasini to‘ldirishga va mukammallashtirishga xizmat qilgani aniqlangan;

“O‘tkan kunlar”dagi real, ijtimoiy va psixologik xronotoplar tarjimalari butun dunyo xalqlari uchun qabul qilingan qonuniyatlar asosida tasvirlangani sababli mutarjimlar uchun muammo tug‘dirmagani, va, aksincha, asliyatdagi tarixiy, milliy va folklor xronotoplar tarjimalari bir millat tarixi, madaniyati va milliy o‘ziga xosligini ifodalangani uchun ularni tarjima qilishda mutarjimlar xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygani isbotlangan;

asardagi milliy o‘ziga xoslikni qayta yaratishda rus tarjimonlari L.Bat va V.Smirnovalar asliyat tili vositalariga va tarjima tilida shu vositalarni ifodalay oladigan so‘zlar va birikmalarni qo‘llashda davr ruhini his qilmagan holda yondoshgani, natijada romanning rus tili orqali amalga oshirilgan nemischa tarjimasida ham ayrim o‘rinlarda shu kabi kamchiliklar kuzatilgani, romanning keyingi ruscha tarjimasida mutarjim M.Safarov esa aynan shu jihatlar bilan tarjimaning asliyatga muvofiqligini ta‘minlashga erishgani dalillangan;

“O‘tkan kunlar” romanidagi muallif tomonidan qo‘llanilgan o‘xshatish, sifatlash, maqol va idiomalarni g‘arb tillariga tarjima qilishda konkretlashtirish, umumlashtirish, muqobil variant bilan berish, izohlash va sharhlash kabi tarjima tamoyillari ijobiy natija bergan bo‘lsa, so‘zma-so‘z tarjima qilish yoki tushirib qoldirish kabi holatlar asliyatdagi ma‘no anglashilishiga to‘sqinlik qilgani aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tarjimonlarning birinchi o‘zbek romaniga bo‘lgan qiziqishi sabab ushbu romanning sharq va g‘arb tillariga qilingan tarjimalari haqida tahliliy fikrlar keltirilgan;

romanda muallif tomonidan qo‘llanilgan xronotoplar ilk bor tasniflandi va ularning romanning ruscha va nemischa tarjimalaridagi o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatilgan;

mutarjimlar tomonidan “O‘tkan kunlar” asaridagi milliy va tarixiy tasvirlarning ruscha va nemischa tarjimalarida yo‘l qo‘yilgan uslubiy, leksik xatolar mavjudligi aniqlangan va ayni paytda ushbu kamchilik va xatolar tadqiqot ishi doirasida bartaraf etilgan;

asar tarjimalarida badiiy-uslubiy moslashtirish muammolari tahlil etilgan va ushbu masala tadqiqot ishida bir necha ilova va jadvallar orqali ko'rsatilgan.

**Tadqiqotning natijalarining ishonchligi** foydalanilgan yondashuvlar va usullar, ma'lumotlar badiiy va ilmiy manbalar asosida berilganligi, statistik, qiyosiy-uslubiy, tarixiy-tahliliy, qiyosiy-chog'ishtirma va strukturaviy usullardan foydalanilganligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga tatbiq qilinishi, natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ushbu tadqiqot ishi respublikamizdagi adabiyoshunoslik va tarjimashunoslik tarixi tadqiqiga oid fundamental ilmiy ishlarda, oliy o'quv yurtlari talabalari uchun shu sohadagi darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda va boyitishda, nazariy asoslari, xulosalari va tahlillari esa o'zbek adabiyoti namunalarini chet tillarga tarjima qilishda qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan ishlarga ilmiy manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ularni tarjima amaliyotida qo'llash jarayonida, tadqiqot natijalari va xulosalari esa tarjima tarixi va amaliyotiga oid bo'lgan darsliklar, tarjima nazariyasi bo'yicha maxsus kurs, lug'atlar, tarjimashunoslik sohasida qo'llanmalar tuzishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "O'tkan kunlar" romanining ruscha va nemischa tarjimalaridagi tarixiy-milliy va uslubiy o'ziga xoslikni qayta yaratish muammolarini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

"O'tkan kunlar" romanining ruscha va nemischa tarjimalarida berilgan izohlar aslyat va tarjima o'rtasida mutanosiblik, mukammallikni belgilashga, B.Oripova tomonidan tayyorlangan to'ldirilgan nashrdagi izohlar hamda epilog va epigraflar tarjimasini asarning Arno Shpext tomonidan amalga oshirilgan nemischa tarjimasini to'ldirishga va mukammallashtirishga xizmat qilgani, asardagi real, ijtimoiy va psixologik xronotoplar tarjimalari butun dunyo xalqlari uchun qabul qilingan qonuniyatlar asosida tasvirlangani sababli mutarjimlar uchun muammo tug'dirmagani, va, aksincha, aslyatdagi tarixiy, milliy va folklor xronotoplar tarjimalari bir millat tarixi, madaniyati va milliy o'ziga xosligini ifodalagani uchun ularni tarjima qilishda mutarjimlar xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygani haqidagi ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan "№ IL-402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Andijon davlat universitetining 2024 yil 22-iyundagi 39-04-723-son ma'lumotnomasi). Natijada tarjimada qo'llaniluvchi ayrim til birliklarining o'ziga xosliklari ochib berilgan;

"O'tkan kunlar" romanidagi muallif tomonidan qo'llanilgan o'xshatish, sifatlash, maqol va idiomalarni g'arb tillariga tarjima qilishda konkretlashtirish, umumlashtirish, muqobil variant bilan berish, izohlash va sharhlash kabi tarjima tamoyillari ijobiy natija bergani, so'zma-so'z tarjima qilish yoki tushirib qoldirish kabi holatlar aslyatdagi ma'no anglashilishiga to'sqinlik qilgani haqidagi ilmiy xulosalardan "O'zbekiston" teleradio kanali DM tomonidan tayyorlangan "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dasturlarning senariysida 2023 yil fevral va dekabr oylari hamda 2024 yil yanvar va fevral oylari sonlarida tadqiqotchi bilan

bevosita suhbat olib borilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024 yil 6-martdagi 04-36-340 son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu dasturlarning yanada qiziqarli va dolzarbligiga erishilgan, tadqiqot obyekti bo‘lgan “O‘tkan kunlar” asari ustida olib borilayotgan tadqiqotlar, tahlillar va tarjimalar romanning tarjimashunoslik sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalarga boyligidan dalolat ekanligi tinglovchilarning sohadagi bilimlarini oshirishga xizmat qildi;

Asardagi milliy o‘ziga xoslikni qayta yaratishda rus tarjimonlari L.Bat va V.Smirnovalar asliyat tili vositalariga va tarjima tilida shu vositalarni ifodalay oladigan so‘zlar va birikmalarni qo‘llashda davr ruhini his qilmagan holda yondoshgani, natijada romanning rus tili orqali amalga oshirilgan nemischa tarjimasida ham ayrim o‘rinlarda shu kabi kamchiliklar kuzatilgani, romanning keyingi ruscha tarjimasida mutarjim M.Safarov esa aynan shu jihatlar bilan tarjimaning asliyatga muvofiqligini ta’minlashga erishgani haqidagi ma’lumotlardan 2021-2022 yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san’ati tarixi” nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zR Mudofaa vazirligining 2024 yil 29-martdagi 10/617-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida ishlab chiqilgan monografiya mazmunining boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** O‘rganilgan tadqiqot ishining asosiy mazmuni va natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 6 ta xalqaro: 1.Science and Education Materials of the international Research and Practice Conference (Germaniya, 2016), 2.Gumanitarniy korpus, Сборник Ukraina, наукових статей с актуальних проблем філософії, культурології, педагогіки і історії (Ukraina, 2016), 3.Илм-fan, ta’lim va san’at integratsiyasi: istiqbolli rejalar. Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari (Qozog‘iston, Chimkent,2023), 4.Фундаментальная и прикладная наука: состояния и тенденции развития. Сборник статей XXXV международной научно-практической конференции(Moskva, 2023), 5.Вопросы современной филологии и теории обучения иностранным языкам (Andijon, 2023) va 6. Илм-fan, ta’lim va san’at integratsiyasi: istiqbolli rejalar. Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari (Qozog‘iston, 2023) da va 8 ta Respublika va hududiy ilmiy amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (5 tasi respublika jurnallarida, 2 tasi xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi** kirish, asosiy 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, ularning umumiy xajmi 142 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘tkan kunlar” asari tarjimalari va ulardagi izohlar tahlili** deb nomlangan. Birinchi bobning birinchi faslida esa **“Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tarjimalari tadqiqi**” xususida so‘z boradi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarining ilk boblari yozila boshlanganiga bu yil qariyb 100 yil to‘ladi. Ushbu asar o‘z davrida juda ko‘p g‘arb va sharq tillariga tarjima qilingan va bugungi kunda ham bu tarjimalar davom etmoqda. Bizga ma’lum tadqiqotlarda asarning ilk tarjimoni Xolid Said ekani aniqlandi. Tarjimonlar asarni har bir davrda dunyoning turli tillariga tarjima qilishda o‘z ijodiy maqsadlari va davr talabidan kelib chiqib yondoshganlar. Natijada ular amalga oshirgan tarjimalar ham ilmiy, ham uslubiy jihatdan o‘ziga xos asarlar bo‘lgan.

Adibning “O‘tkan kunlar” romani nashr etilishi bilanoq oradan uch yil o‘tib uning ozar tiliga tarjima qilinishi ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu faslda yana asarning turk, turkman, tojik, uyg‘ur, rus, nemis, xitoy, arab tillariga qilingan tarjimalari tadqiq etilgan.

Asar 1936-1938 yillar oralig‘ida Abdusalom Dexotiy Pirmuhammadzoda tomonidan tojik tiliga o‘girilgan. Afsuski, ushbu tarjima bugungi kunda saqlab qolinmagan. 1958-yil L.Bat va V.Smirnovalar tomonidan „Минувшие дни“ nomi bilan rus tiliga asliyat tilini bilmagan holda taglamalar orqali tarjima qilingan<sup>7</sup>. F.Xabibullayeva bu haqida to‘xtalib, taglamaning ikki varianti mavjud bo‘lganligi va ulardan biri L.Bat arxivida hozirgacha saqlanayotgan bo‘lishi mumkinligi haqida aytadi<sup>8</sup>. Biroq bu tarjimani to‘liq deya olmaymiz, chunki ushbu tarjimada davr tazyiqi ostida asarning bosh g‘oyasi bo‘lmish xalq mustaqilligi va erkinligini orzu qilgan holda yozilgan parchalar olib tashlangan. O‘zbek adabiyoti namunalarini huddi shu kabi rus tiliga sayoz qilingan tarjimalari haqida G‘aybulla-as-Salom shunday fikr bildirgan: “O‘zbek so‘z san’atkorlarining asarlari rus tiliga qilingan tarjimalari orqali jahonga tanilar ekan, tabiiyki, bu asarlarga ular aslida qanday yozilgani yuzasidan emas, qanday tarjima qilinganiga qarab baho beriladi. O‘zbek yozuvchilarining aksariyati, jumladan, A.Qodiriy, Oybek va Xamza o‘z asarlarining rus tiliga qilingan tarjimalarida o‘zlariga o‘xshamay qolganlar. Badiiy asarning leksik, frazeologik va uslub boyligi, yozuvchilarning badiiy mahorati va individual uslub jilosi bu tarjimalarda o‘z aksini topmagan<sup>9</sup>”.

<sup>7</sup>Кадыри А. Минувшие дни. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы, 1958. – С.296.

<sup>8</sup> Хабибуллаева Ф. К. Воссоздание национального своеобразия как критерий адекватности перевода. Дисс.. док. философии (PhD) по филологическому наукам.- Ташкент, 2020.-В.153.

<sup>9</sup> Salomov G`. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – B.356.

Darhaqiqat, aynan 50-70 yillar oralig'ida tarjima qilingan buyuk yozuvchilarning o'lmas asarlarida aks etgan bosh g'oyalar tarjimalarda e'tiborsiz qoldirilgan va natijada bu asarlar oddiy maishiy asarlarga aylanib qolgan. Va nihoyat, 1984 yilda M.Safarov asarning ruscha to'liq shaklini asliyatga tayangan holda tarjima qiladi va bu tarjimada u oldingi rus mutarjimplari yo'l qo'ygan kamchiliklarni bartaraf etishga va to'ldirishga muvaffaq bo'ladi<sup>10</sup>.

Asarning rus tiliga qilingan har ikki tarjimasi mutarjimplar ijod qilgan davr siyosati va adabiy muhiti tufayli turlicha ahamiyat kasb etgan. L.Bat va V.Smirnovalar tarjimalarida milliylik va tarixiylik masalasi yetarlicha aks etmagan, roman ko'proq maishiy asar sifatida tarjima qilingan. M. Safarov tarjimasida esa istiqlol davrining ruhi va nafasi sezilib turadi. Roman tarjimasida erkinlik va mukammallik bor. 1959-yilda, Qozon shahrida, Tatariston kitob nashriyoti tomonidan tayyorlangan "O'zbek adabiyoti jurnalida" asarning tatarcha tarjimasi chop etilgan. Kitob "O'tkən kənnər" deb nomlangan<sup>11</sup>. Tarjimon va kirish so'zi muallifi M. No'mon. "O'tkan kunlar" romanini uyg'ur tiliga Jamol Busakov 1960 yili tarjima qilgan<sup>12</sup>. Kitob Olma-ota shahrida chop etilgan. Kitobning ikkinchi tarjimasi A.Zunnunov va A.Islomov tomonidan amalga oshirilgan. Roman 1960 yil Toshkentda nashrdan chiqqan. "O'tgan kunlar" romani nemis tiliga 1968 yilda Arno Shpext tomonidan tarjima qilingan<sup>13</sup> va bu tarjimalar orqali o'zbek adabiyotining xorijlik muxlislari ham bebaho durdona asardan bahramand bo'lish baxtiga erishdilar. Arno Shpext romanni ruscha tarjimasi orqali nemis tiliga o'girganini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu nemischa tarjimada asardagi milliylik ruhining jonsiz tasviri, aksariyat hollarda asardagi voqea va hodisalar bayonining tushirib qoldirilishi kabi holatlar juda ko'p uchraydi.

Asarning ingliz tiliga bir necha bor tarjima etilishi yuzasidan ham tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, 2019-yil Islom Karimov fondi buyurtmasiga asosan "O'tkan kunlar" romani „Days Gone By“ nomi bilan ingliz tiliga mutarjim Kerol Yermakova tomonidan tarjima qilingan va Fransiyaning „Nouveau Monde Editions“ nashriyotida Juli Uikeden muharrirligi ostida chop etilgan.

Shuningdek, 2019-yil amerikalik tadqiqotchi va tarjimon M.Riz tomonidan „Bygone Days“ nomi bilan ingliz tiliga tarjima qilingan. M.Riz ushbu kitobni 15 yil davomida tarjima qilgan va asar 660 sahifadan iborat bo'lib, unda amerikaliklarga tushunarli bo'lishi uchun 400 dan ortiq izoh va sharhlar yozgan. Bundan tashqari "O'tkan kunlar" asari tadqiqotchi Ilhom To'xtasinov rahbarligida ham bir guruh tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga o'girilgan.

Tadqiqotchilar M.Karimov<sup>14</sup>, Z.Bazarov<sup>15</sup> va G.Kenjayevalar<sup>16</sup> o'z tadqiqot ishlarida ushbu asarning inglizcha tarjimalari ustida ish olib borganlar.

---

<sup>10</sup>Кадыри А. Минувшие дни.- Ташкент: Главная редакция издательско-полиграфической акционерно компании «Шарк» 2009.-С.426.

<sup>11</sup> Qodiriy Sh. "O'tkan kunlar" romani va uning taqdiri. Toshkent: Zilol buloq,2019.-B.197.

<sup>12</sup> Босаков, Жамаладдин // [Казахстан. Национальная энциклопедия](#). — Алматы: [Казак энциклопедиясы](#), 2004. — Т. I. — ISBN 9965-9389-9-7. (CC BY-SA 3.0)

<sup>13</sup> Abdulla Kadiri. Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. —С.358.

<sup>14</sup> Karimov M. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalarida tasviriy vositalarning lingvokulturologik tadqiqi.f.f.d. diss.avtorefer...- Andijon, 2023.

<sup>15</sup> Bazarov Z. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yoqdorlikni saqlash muammolari (Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" inglizcha tarjimalari misolida) fal.fan.fil.diss.avtoref...- Samarqand, 2020.

Joriy yilda Misrning Ayn Shans universiteti professori, yozuvchi va tarjimon Muhammad-al-Jibali Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini arab tiliga tarjima qildi<sup>17</sup>. Professor ushbu romanning arab tiliga tarjima qilinishi nafaqat Misr, balki butun arab dunyosida iliq kutib olinishiga ishonch bildirdi. Romandagi o‘zbekona milliy ruhni aks ettirish hamda tarjimoni Misr kitobxonlari aslyat kabi qabul qilishlari uchun mamlakatimizning Misrdagi elchixonasi, hozirgi paytda Qohirada istiqomat qilayotgan Husan Abdumajidov, taqdir taqozosi bilan bolalik chog‘laridan buyon Saudiya Arabistonida yashab tahsil olgan vatandosh, yozuvchi va tarjimon Said Mahmud Kosoniy va boshqa hamyurtlar ko‘maklashgan.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **““O‘tkan kunlar” romani tarjimalarida izohlarning berilishi”** deb nomlanadi va ushbu faslda tadqiqot ishimiz obyekt bo‘lgan asarning har ikki ruscha va nemischa tarjimalaridagi izohlar masalasi tahlilga tortilgan.

Asarning Barno Oripova tomonidan amalga oshirilgan nemischa to‘ldirilgan va qayta nashrida juda ko‘p yutuqlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Abdulla Qodiriyning roman boshida keltirilgan “Yozg‘uchidan” va “Uzr” kabi izohnomalarini yangilik sifatida tarjima qilinishidir. Asarning 1968 yilda nemis tiliga qilingan tarjimasida mutarjim Arno Shpext asarning aynan shu qismlarining tarjimasini e‘tibordan chetda qoldirgan. 1968 yilgi tarjima bilvosita rus tili orqali amalga oshirilganini hisobga oladigan bo‘lsak, tarjimon Arno Shpextni bu yerda ayblab ham bo‘lmaydi. Chunki asarning L.Bat va V.Smirnovalar tomonidan 1958 yilda amalga oshirilgan ruscha tarjimasida ham bu qismlar tarjimalari tushirib qoldirilgan. Olimaning o‘zbek tilini yaxshi bilganligi unga asarni hech qanday tarjima variantlarisiz bevosita o‘zbek tili orqali nemischa tarjimasini bilan solishtirish va qayta to‘ldirish imkonini berdi. Asarning 1925 yilda to‘liq holda chop etilgan nashrida Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan „Uzr“ izohnomasi bor. Bu izohnoma asarning keyingi nashrlarida uchramaydi. B.Oripova aynan shu „Uzr“ izohnomasini ham „Entschuldigung“ sarlavhasi ostida tarjima qilishga muvaffaq bo‘lgan. Bu izohnomada Abdulla Qodiriy „O‘tkan kunlar“ romani hali to‘la chop etilmasidanoq, „Inqilob“ jurnalida bo‘lim–bo‘lim bo‘lib nashr qilina boshlaganidanoq tanqidlarga uchrangani, arzimas, juz‘iy xatolar sababli 5 yillab bosila olmay yotgani haqida yozgan. Izohnomaning tagiga havola bilan “O‘tkan kunlar” romani 1922-1925 yillar oralig‘ida „Inqilob“ jurnali orqali bo‘limlar tarzida chop etilgani, birinchi va ikkinchi bo‘limlar 1925 yilda, uchinchi bo‘lim esa 1926 yilda kitob holida nashr qilingani va yuqorida berilgan „Uzr“ izohnomasi kitobning 1925 yildagi nashrining birinchi bo‘limidan olingani haqida ma‘lumot berilgan. Romanning Arno Shpext tarjimasida bu kabi ma‘lumotni uchratmaymiz. Asarning har ikki mutarjim tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarida oxirida nemis o‘quvchilariga tushunarli bo‘lishi uchun milliy xos so‘zlar va tushunchalarga izoh berib ketilgan. Bular Arno Shpext tarjimasida 105 tani tashkil qilsa, Barno Oripova o‘z tarjimasida 62 ta shunday so‘z va iboralarni izohlab beradi. Barno Oripova asarni tarjima qilishda Arno Shpext tarjimasini asos qilib

---

<sup>16</sup> Kenjayeva G. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” tarjimalarida milliy manzaraning lingvomadaniy ifodasi. Fal.fan. fil. diss. avtorefer... Buxoro, 2021.

<sup>17</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/24/otkan-kunlar/>

olgan bo'lsa ham, o'z yondoshuvidan kelib chiqqan holda tajimada ayrim hollarda o'zgarishlar qila oldi. Misol uchun kitobda qo'llanilgan "Baburname" so'zining izohi Arno Shpext tarjimasida shunday keltiriladi: "Memoiren des indischen Herrschers Babur" (A.Kadiri., 1968, 369), ya'ni hind diyoring shohi bo'lmish Boburning xotira kitobi. Izohda Z.M.Bobur haqida ma'lumot berilmaydi. Barno Oripova bu jihatlarni ham inobatga olgan holda tarjimada izohni shunday beradi: "Babur-name: Memoiren des in Andijan geborenen Begünder des indischen Mogulenreiches Babur (1483-1530)" (Boburnoma- Andijonda tug'ilgan va Hindiston mo'g'ul imperiyasining asoschisi bo'lgan Boburning xotira kitobi) (A. Kadiri., 2020, 402). Qavs ichiga Boburning yashab o'tgan davri ham yoziladi. Yana bir misol, har ikki tarjimada "Aka" so'zi izohlangan. Arno Shpext tarjimasida bu –älterer Bruder (katta aka) (A. Kadiri., 1968, 369) shaklida berilgan bo'lsa, Barno Oripova ushbu so'zni –älterer Bruder, respektvolle Anrede, ya'ni „katta aka yoki, hurmat bilan murojaat qilish“ (A. Kadiri., 2020, 402) shaklida tarjima qilgan. Millatimizda o'zidan katta yoshli insonlarga, u hatto begona bo'lsa ham „aka“ deb hurmat shaklida murojaat qilish odati bor. Barno Oripova aynan shu holatni nazarda tutgan holda tarjimaga e'tibor qaratgan. Roman so'nggida Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan „Bitdi. Yozg'uchidan“ nomli izohnomasi ham olim ayol e'tiboridan chetda qolmaydi.

Barno Oripova romanni har jihatdan mukammal qayta nashrini yaratishda astoydil mehnat qildi. Asarning aynan 1925-1926 yilda nashr qilingan nusxasi asosida avvalgi nemischa tarjimada yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tahlil qildi va o'z o'rnida bu nuqsonlarni bartaraf qilishga erishdi.

Romanning 1958 yildagi L.Bat va V.Smirnovalar ruscha tarjimasida 56 ta izohlar berilgan. 2009 yilda M.Safarov tomonidan amalga oshirilgan tarjimada esa izohlar soni 157 tani tashkil etadi. Izohlar soni o'rtasidagi bunday katta tafovutning asosiy sababi esa birinchi tarjima amalga oshirilgan paytda asarga tarixiy roman deb emas, balki shunchaki maishiy roman sifatida qaralgani, natijada asardagi milliylik va tarixiylikni ifodalovchi ko'plab so'zlar tarjimasiga e'tiborsizlik bilan yondoshilgani natijasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. L.Bat va V.Smirnovalar tarjimalarida asliyatdagi ko'plab so'zlar kontekst ichida shundayligicha qoldirilgan. Ularga na qavs ichida va na satr ostida izohlar berilgan. Misol uchun M.Safarov *xujra* so'zini *комната* deb satr ostida izohlab ketgan. Bu izoh L.Bat va V.Smirnovalarda uchramaydi: *После этих слов Атабек вошёл в художру и присел у постели* (M.Safarov). *Тогда лишь Атабек вошёл и присел у постели* (L.Bat, V.Smirnova). Aslida *комната* so'zi ham to'laqonli izoh bo'la olmaydi. A.Jumanazarovning "Buxoro ta'lim tizimi tarixi" nomli kitobida "xujra" ga nisbatan shunday ta'rif keltirilgan: **Hujra** — an'anaviy o'zbek me'morligidagi eng kichik xona; bir yoki bir necha kishiga mo'ljallangan yotoqxona. Jamoat binolarida (madrasa, masjid, maqbara va boshqa ziyoratgohlar), turar joylarning tashqari qismida qurilgan (A.Jumanazar., 2017 ,592). **Комната** —помещение разного целевого назначения, часть пространства внутри жилого здания, ограниченное внутренними стенами (перегородками) от других комнат, помещений и проходов, как правило, оборудованное входной дверью и окнами ([Комната](#) // [Толковый словарь живого](#)

великорусского языка 1880—1882, 358) (Ya'ni, devorlar bilan ajratilgan, eshik va derazalari bor bo'lgan yashash joyidagi alohida xona). *Turar joylarning tashqari qismida qurilgan, prostранства внутри жилого здания*- izohlardagi shu ikki jumlaning o'ziyoq xujra va xona tushunchalari o'rtasidagi farqni ko'rsatib turibdi. Lekin, M.Safarov shu so'zni berish bilan, rus o'quvchisida "xujra" haqida umumiy bo'lsada ma'lumot olishiga zamin yaratgan. Asarning ruscha va nemischa tarjimalarida maxsus izoh va sharhlarning berilishi tarjimonlar "O'tkan kunlar" asariga Markaziy Osiyo tarixini o'zida aks ettirgan tarixiy asar sifatida yondoshganliklaridan dalolat. Romanning nemis va rus tilidagi keying tarjimalarida asliyatni saqlash borasida anchagina ishlar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning „**O'tkan kunlar**“ romanidagi tarixiy-milliy o'ziga xoslikni qayta yaratish“ nomli ikkinchi bobi ham ikki fasldan iborat. „**Roman tarjimalarida xronotoplarni aks ettirish masalasi**“ nomli birinchi faslda asarning ruscha va nemischa tarjimalarida vaqt va makon tushunchalarininng qayta aks ettirilish masalalari haqida so'z boradi. Bizga ma'lumki, adabiyotshunoslikka xronotop tushunchasi M. Baxtin nazariyasi bilan kirib kelgan. Yunoncha chronos (zamon) va topos (makon) so'zlarini birlashtirish orqali hosil qilingan ushbu ilmiy atamani M. Baxtin XX asrning 30-yillarida bevosita adabiyotshunoslikka olib kirar ekan, uning badiiy asar negizidagi janr, kompozitsiya, syujet, badiiy matn strukturasi, obrazlar poetikasiga doir muhim qismlarni qamrab olishi, badiiy makon va zamoni uyg'un aks ettirishini hisobga oladi (M. Бахтин., 1975, 234-235). O'zbek adabiyotshunosligida ham makon va zamon tushunchasi olimlarning doimo diqqat markazida bo'lgan. Makon tushunchasi antroposentrik mohiyatga ega bo'lgan tushuncha ekanligi, u inson va makon munosabatlarining tilda aks etishida namoyon bo'lishi haqida ilmiy asoslar D.Quronov (D.Quronov., 2018,276), M.Qo'shjonov(M.Qo'shjonov., 1981, 344), B.Karim (B.Karimov., 2004, 179) kabi adabiyotshunos olimlar ishlarida va tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ularga ko'ra, har qanday badiiy asarda makonni ifodalovchi leksik vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Romanlarda epik tasvir makon va zamonda yuz beradigan voqealar hamda obrazlar munosabatini teranroq tushunish imkonini beradi.

